

THE ISSUE OF THE RELATIONSHIP BETWEEN MAN AND SOCIETY IN THE STORIES OF SAID AHMAD

Barakayeva Shodiya

1st-Year Master's Student, Faculty of Uzbek Language and Literature,
Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature

Annotation: The issue of individuals and society is one of the main themes raised in the stories of Said Ahmad. The author extensively explores social problems, justice and equality, personal freedom, and responsibility in his stories. This article is aimed at analyzing these themes and highlighting the complex relationship between individuals and society in his works.

Keywords: story, storytelling, concept of personality, style, social life, artistic imagery tools, relationship between individuals and society.

Said Ahmad - o'zbek adabiyotida o'ziga xos ovoz, o'tkir tahlil va samimiylik bilan ajralib turadigan yozuvchilardan biridir. Uning hikoyalari o'zida inson qalbi va jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni yoritadi. Adib asarlarida shaxs va jamiyat muammolari, ularning manfaatlari o'rtasidagi muvozanat hamda individning ijtimoiy mas'uliyatlari keng tahlil qilinadi.

“1940 yilda, Said Ahmad yigirma yoshga kirganida uning “Tortiq” deb nomlangan hikoyalar to'plami bosilib chiqqan. “O'zdavnashr”da chop qilingan ushbu kitobga o'sha paytning o'zida Abdulla Qahhor munosabati bildirgan. “Sarob” muallifi yosh qalamkashning bu ilk kitobi to'g'risidagi mulohazalarini: “Tortiq” to'plamidagi ko'p hikoyalar hojati yo'q “ilmiy” asarga o'xshaydi” deb boshlagan va bu fikrini to'plamdagi “Sevinch”, “Tez yordam”, “Bezvota”, “Daydi oshiq” hikoyalarini tahlil qilish asosida ko'rsatib bergan. Abdulla Qahhor “Tortiq” to'plamidagi hikoyalarda hech qanday ma'no yo'qligi, shu bois ular hech qanday qimmatga ega emasligi, buning sababi – muallif bu yozganlarida nima demoqchi ekanini o'zi ham bilmasligi bilan bog'liqligini aniq va ishonarli qilib isbotlagan”

Ammo bundan adibning kamtarligi, o'z asariga o'zidan ko'ra ko'proq o'quvchilar baho berishini istagani ham sezilib turadi. U davrda maullif yosh bo'lishiga qaramay bunday to'plam tuzishi katta yutuq edi. Badiiy ijodda o'z ustozlariga ergashish, ular ta'siridan qutilish oson kechmadi. Jumladan, «Mastonbibi» hikoyasidagi Mastonbibi va usta Qobil qay bir jihatlari bilan A.Qahhorning «Asrorbobo», «Kampirlar sim qoqdi» singari hikoyalari qahramonlarini eslatadi. Yosh adib o'sha davr nasriga xos: xarakterlar mantig'i bilan hisoblashmaslik, ya'ni oddiy odamlarni ijtimoiy mehnat jarayoni ilg'or ishtirokchisi, atrofida gilarga faol ta'sir eta oluvchi targ'ibotchisiga aylantirish tendensiyasiga ergashdi. Qahramon sa'jijasidagi ma'naviy- psixologik o'zgarishlar, insoniy tuyg'ularni aniq individual belgilari bilan poetik dalillash, hayotiy misollar bilan qiyoslash mahoratini egallashda ancha qiynaldi. Tasvir lo'ndaligi va aniqligini ta'minlash, jonli manzaralar yaratish, tiniq insoniy tuyg'ularni ifodalashga erishish oson kechmadi.

Said Ahmad hikoyalarida insonning jamiyatdagi o'rni, uning ijtimoiy burch va huquqlari alohida ko'tariladi. Xususan, «Hukm» hikoyasida inson hayoti va ijtimoiy qoidalar o'rtasidagi qarama-qarshilik tasvirlanadi. Hikoya qahramoni o'z e'tiqodi va qadriyatlarini bilan jamiyat talablariga mos kelmaydigan qarorlarni qabul qilishi orqali inson erkinligining ahamiyatini ochib beradi.

Adib insonning ichki dunyosi va jamiyatdagi roli o'rtasidagi murakkablikni ko'rsatib, odamlarning bir-biriga va ijtimoiy muhitga nisbatan hurmat va mas'uliyatni namoyon qiladi. Bu hikoyalar o'quvchini o'z-o'zini savolga tutishga, jamiyatda o'z o'rnini anglashga chorlaydi. Uning hikoyalarida jamiyatning inson hayotiga ta'siri chuqur yoritiladi. Xususan, «O'rikdom» kabi hikoyalarda jamiyat odatlari va an'analari orqali qahramonlar taqdiri shakllanadi. Bu erda jamiyatni inson taqdiri ustidan hukmron kuch sifatida ko'rish mumkin. Yozuvchi jamiyatning rivojlanishi uchun o'zgarishlar zarurligini ishora qilib, eski qarashlar va yangi fikrlar o'rtasidagi kurashni tasvirlaydi.

“Sarob” hikoyasida ikki avlod tasviri bor. Ota va o’g’il o’rtasidagi konflikt – davr ziddiyati darajasiga ko’tariladi. Noshud o’g’il otasini “dushman” qatoriga qo’shib, o’z hayotida yaxshilik topmaydi. Bu konflikt “Ufq”dagi Ikromjon bilan Tursunboy orasida ham bor edi. “Sarob” hikoyasida o’sha ota-bola zidlashadi: Kimsanboy (Olimjonov) Yolqinov bilan Olimjon domla. Kimsan otasi - tarixchi muallim Olimjon domlani GPU xodimlariga chaqib beradi. O’quvchilik davrida shu “xizmati” uchun qo’l soati oladi. Adib ota bilan bolani lagerda uchrashtiradi. Ota bolasini taniydi, ammo abgor holga tushgan Kimsan otasini tanimaydi. Ko’ksiga Stalin rasmi tushirilgan Kimsan lager rassomidan qora bo’yoq so’raydi. Ko’ksidagi rasm ustini yopmoqchi u. Xullas, shunday fojeaviy taqdir egasi ko’rsatiladi hikoyada.

“Qorako’z majnun”da ham bora-bora ona bilan bola begonaga aylanadi. Ona o’g’lining e’tiqodini o’zgartirganidan xabar topib ko’ngli vayron bo’ladi. Bir kuchukcha - Qaroko’z majnuncha onasiga sadoqat ko’rsata olmaydi o’g’li. Hikoyada juda katta ma’rifiy ma’no-mazmun jamlangan. O’zbekona urf-odatlar qadr-qiyamatiga noloyiq bir farzandning qilmishlarini ko’rsatish orqali urg’u beriladi. To’g’risi, itning vafosi bir o’g’ilning ona ko’nglini vayron qilishiga nisbatan yuksak ma’naviy martabalarda turishi hamisha ulug’vorlik kasb etadi. “Said Ahmadning o’z e’tirofiga ko’ra bunday qisqa, mazmunli yozish san’atini, so’zni tejash ilmini Abdulla Qahhordan, hajviy hikoyalarida yumoristik vaziyatlar yaratish usulini G’afur G’ulomdan o’rgangan ekan. Adibning ushbu hikoyasida iymon-e’tiqodli Saodat kampirning “o’ris shaharlarida daydib qolib ketgan o’g’li Bo’rixon”ga qaraganda itning o’zi yashagan, tuz totgan joyiga, egasiga sadoqati ta’sirchan yoritilgan. Hikoyaga itning aynan vafodorligi tufayli jannatga kiradigan o’n nafar hayvonlardan biri, ya’ni “As’hobi kahf”ning iti ekani haqidagi hadis epigraf sifatida bejiz keltirilmagan. Qorako’z Majnun o’zini boqqan Saodat kampirning gaplarini tushunardi. Ayniqsa, kampir uni “qayoqlarda qolib ketding” deb urishsa, gunohkorona bosh egib turardi. Biroq kampirning o’ttiz ikki yil oldin o’rislar orasida uylanib qolib ketgan o’g’li Bo’rixon onasining “Qayoqlarda

yurganding?” degan gaplarini tushunmay, yelka qisib qo‘ya qoladi. Sababi u ona tilini unutgan edi. Shunda kampir: “Tushunmadingmi? Sen boshqa odam bo‘lib ketibsan”, – deydi o‘g‘liga Ukalari bilan ruscha ohangda “Salyam” deb ko‘rishadi. Ayniqsa, ona o‘g‘lining bo‘ynidagi zanjir uchida osilgan butni ko‘rib, uning dindan chiqqaniga chiday olmaydi. Bo‘rixon armiya xizmatini o‘tagan joyida, o‘rmon ichkarisidagi qishloq butxonasi qo‘ng‘iroqchisining erdan qolgan qiziga oshiqu beqaror bo‘lib, qiz otasining talabiga ko‘ra xristian dinini qabul qilib, cherkovda cho‘qintirilib, toj kiygancha nikohdan o‘tadi. Qaynotasi vafotidan so‘ng esa uning o‘rniga cherkov qo‘ng‘iroqchiligini bajaradi. Cherkovdagi shamlarni yangilab turadi”.

Xullas, hikoyada o‘zligini, dinini, urf-odatlarini yo‘qotgan, yaqinlarini unutgan Bo‘rixon (Borya) obrazi Qorako‘z Majnunday aqlli, odamlarday sadoqatli itga zid qo‘yiladi. Chunki Qorako‘z Majnun egasi Saodat kampir o‘lgandan keyin ham uning xotirasi bilan, uning ovozi qo‘msab yashaydi. Hatto bu narsa uning o‘limiga ham sabab bo‘ladi. Kampirning nevarasi buvisining tirik vaqtida itga aytgan gaplarini magnitafon lentasiga yozib olgan bo‘ladi. Shuni qo‘yganda it kampirni tirik deb o‘ylab rosa vovillaydi. Uning ovozidan xunobi oshgan kishi itni otib qo‘yadi. Qorako‘z Majnun kampirning ovozi kelayotgan boloxona tomonga yuzini burgancha, jon taslim qiladi.

Said Ahmad hayotda ro‘y bergan oddiy voqealarni o‘z asarlariga mavzu qilib olar ekan, ulardan kelib chiqadigan xulosaga asosiy fikrni yuklaydi. Bu xulosalar ba‘zan jiddiy, ba‘zan esa satira va yumorga yo‘g‘rilgan bo‘ladi. Yozuvchidagi aynan shu xislat o‘z o‘quvchisini o‘ziga jalb etadi. Uning o‘quvchilari yosh jihatdan xilm-xil bo‘lib, har bir muxlis uning ijodidan o‘ziga keragini topib o‘qiy oladi. Shu jihati bilan u maktab o‘quvchilarining ham sevimli yozuvchisidir.

Said Ahmadning ko‘pgina asarlarida shaxsiy erkinlik va jamiyat qoidalari o‘rtasidagi ziddiyatlar yoritilgan. Hikoyalaridagi qahramon o‘z istaklari va jamiyatning uni majburlagan sharoitlar o‘rtasida tanlov qilishga majbur bo‘ladi.

Ushbu tanlov orqali inson erkinligi va jamiyat qadriyatlari o'rtasidagi muvozanat masalasi tahlil qilinadi.

Said Ahmad hikoyalari inson va jamiyat munosabatlariga oid muhim savollarni ko'taradi. Adib asarlarida insonning shaxsiy erkinligi, ijtimoiy mas'uliyati va jamiyatdagi o'z o'rnini yuksak badiiy mahorat bilan tasvirlangan. Bu hikoyalar nafaqat adabiy qadriyat, balki ijtimoiy o'rganish uchun ham boy manba hisoblanadi. Yozuvchining asarlari o'quvchini insoniylik, adolat va mas'uliyat haqida chuqur o'ylashga undaydi.

Said Ahmadning hayotiy hikoyalari bugungi zamon o'quvchisini ham o'z fikr-mulohazalari orqali tarbiya qilishi bilan ahamiyatlidir.

Adabiyotlar:

1. Said Ahmad. Qorako'z Majnun: hikoyalar. – T.: “Sano-standart”, 2016. – 232 b.
2. Ahmad S. Ufq. – Toshkent: “Sano-standart”, 2016. – 400 b.
3. Ahmad S. Ot bilan suhbat. – // “O'zbekiston adabiyoti va san'ati” gazetasi, 2020 yil 12 iyun
4. Ahmad S. Hikoyalar. www.ziyouz.com kutubxonasi.
5. Ahmad S. Yo'qotganlarim va topganlarim (xotiralar, adabiy o'ylar va esselar). – Toshkent: “Sharq”, 1998. – 304 b.
6. Mirvaliyev S., Shokirova R. O'zbek adiblari. – T.: “Fan”, 2007. 42-b.
7. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. – T.: “O'zbekiston”, 2006. 93-b.
8. www.ziyonet.uz
9. www.turklib.uz
10. www.uz.wikipedia.org
11. www.kh-davron.uz
12. www.wikipedia.org

ITALY

EPS 10